



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

19. Madrakhimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

QORAMOL SUT MAHSULDORLIGIN OSHIRISHDA ILIMIY YONDASHUVLAR

Mamatov X., Seydanov I., Kalniyazova A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Kirish. O'zbekiston Respublikasida qoramolchilik tarmog'i agrar sohaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi kabi quruq iqlimli hududlarda qoramol sut mahsuldorligini oshirish masalasi iqtisodiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Sut mahsuldorligini oshirishda genetik seleksiya, optimal oziqlantirish, issiqlik stressini kamaytirish hamda parvarishlash sharoitlarini yaxshilash muhim rol o'ynaydi.

Mavzuning dolzarbligi: Qoramolchilik tarmog'ining asosiy maqsadi yuqori sifatli sut va go'sht mahsulotlarini olishdir. Sut mahsuldorligi ko'p jihatdan sigirning zoti, oziqlantirish turi, saqlash sharoiti va parvarish darajasiga bog'liqdir. Mahalliy sharoitda, ayniqsa iqlimi keskin bo'lgan hududlarda, qoramollardan olinadigan sut mahsulotini barqaror ishlab chiqarishni taminlashda oziqlantirish omili hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va metodikasi: Ilimiy-tajriba ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumanidagi "Sultan Bereketli Sharwa" fermer xo'jaligida mahalliy va simmental zotli sigirlarda olib borildi.

Tadqiqot usuli: Zootexniya va biologiyalik usullarda olib borildi.

Tadqiqot natijalari: Sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishda saqlash va kompleksli oziqlantirish omili hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tajriba guruhi uchun tuzilgan ratsionda ozuqalar turlari, ozuqalar miqdori, umumiy ozuqalar tarkibidagi quruq modda, laktatsiya uchun sarflangan energiya, klechatka, umumiy energiya, xom protein miqdori, umumiy yog', hazmlanmaydigan protein, Ca va P miqdorlari inobatga olib balanslashtirilgan ratsion tuzilgan. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning I laktatsiyasidagi sut mahsuldorligini o'rganib tahlil qildik, uning natijalari jadvalda keltirildi. Jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatgan, I guruhlaridagi sigirlarning laktatsiya mobaynidagi sut mahsuldorligi II guruhdagi sigirlarnikidan 884,6 yoki 9,3 foizga, sut yog'i 0,07 va 1,71 foizga, sut oqsili 0,01 kg yoki 0,32 foizga, tirik vazni 16,9 kg yoki 2,3 foizga, sutdorlik koeffitsienti 93,4 kg yoki 7,2 foizga yuqori bo'lgan [1].

Sigirlar organizmida laktatsiya davrida moddalar almashinuvi jarayonlari jadal kechib, bu jarayonlar natijasida ozuqalarning to'yimli moddalaridan sut hosil bo'ladi. Shu tufayli bu davrda sigirlarni sut mahsuldorligini hisobga olgan holda to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash zarur. Sigirlar ratsioni muvofiqlashtirilgan bo'lib, ozuqalar tarkibi to'yimli moddalar bilan birga, biologik faol moddalar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar bilan ta'minlangan bo'lishi ularning mahsuldorligi bo'yicha genetik imkoniyatlaridan keng foydalanishda alohida amaliy ahamiyatga ega [2].

Biz yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda tajriba guruhlaridagi sigirlarni oziqlantirishni tashkil etdik. Uning natijalari 1-jadvalda keltiriladi.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarga laktatsiya davrida bo'lgan oзуqalar sarfi, kg

		Oziq miqdori, kg	Oziq birligi., kg	Al. Energiya MDJ	Quruq modda kg	Hazm protein, gr	Xom kleshatka, gr	Qant, gr	Osh tuzi, gr	Ca, gr	P, gr	Karaoti n, mg
Ozuqa meyori			13,6	158	16,5	1360	4130	1225	97	97	69	610
1	Beda pishani	2,5	1,1	16,8	2075	252,5	632,5	50		42,5	5,5	122,5
2	Turli o't pishani	3,5	1,54	22,575	2975	196	899,5	35		29,05	7	52,5
3	Samon bahorgi	2	0,44	9,82	1698	18	702	6		6,6	1,8	10
4	Makka silosi	30	6	69	7500	420	2250	180		42	12	600
5	Sabzi	15	2,1	33	1800	120	165	525		13,5	7,5	810
6	Bug'doy kepagi	1,5	1,125	13,275	1275	145,5	132	70,5		3	14,4	3,9
7	Paxta shroti	0,5	0,445	5,105	450	164,5	62	32,5		2,05	5	0,5
8	Makka yarmasi	1	1,33	12,8	850	73	38	40		0,5	5,2	0,8
9	Tuz	0,097							97			
10	DAF	0,050									12,5	
11	Jami		14,08	182,375	18623	1389,5	4881	939	97	139,2	70,9	1600,2
12	Farqi		0,48	24,38	18607	29,5	751	-286,0	0	42,20	1,90	990

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning I laktatsiyasidagi sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	n=10		n=10	
	X ± S x	S v, %	X ± S x	S v, %
Tirik vazni, kg	630,8±6,37	1,01	550,0 ± 7,95	4,57
Sut miqdori, kg	8540±180,5	6,7	7015,0 ± 148,1	6,67
Sut tarkibidagi yog', %	4,1 ± 0,07	5,5	4,03 ± 0,080	6,3
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,1 ± 0,016	1,62	3,09 ± 0,00059	0,06
Sutdorlik ko'effitsienti, kg	1353,8±13,54	6,51	1276,0 ± 27,42	6,79

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning I laktatsiyasidagi sut mahsuldorligini o'rganib tahlil qildik, uning natijalari jadvalda keltirildi. Jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatgan, I guruhlaridagi sigirlarning laktatsiya mobaynidagi sut mahsuldorligi II guruhdagi sigirlarnikidan 1525,0 yoki 21,7% foizga, sut yog'i 67,44 kg va 23,9 foizga, sut oqsili 47,98 kg yoki 22,1 foizga, tirik vazni 50,0 kg yoki 9,1 foizga, sutdorlik ko'effitsienti 77,8 kg yoki 6,10 foizga yuqori bo'lgan.

Sigirlar sut mahsuldorligi ko'pincha ularning zotiga, oziqlantirish meyor va turi, saqlash va parvarishlash sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Hattoki, bir xil sharoitda boqilayotgan bir xil zotga mansub bo'lgan sigirlar ham mahsuldorligi bilan bir-birlaridan farqlanadi. Bunday farqlanishni sigirlarning individual, ya'ni o'ziga hos bo'lgan xususiyatlari hamda uning irsiy omillari bilan tushuntirish mumkin. Sutning kimyoviy tarkibi va to'yimlilik yuqorida keltirilgan ko'pchilik omillarga bog'liq bo'lib, har xil zotlarda o'ziga xos ravishda farqlanadi.

Sutning tarkibi va to'yimlilik qiymati sigirlarning sut berish davri, salomatligi, oziqlantirish meyor va turiga bog'liq holda o'zgaradi. Sigirlarni laktatsiyasi mobaynida, ayniqsa uning dastlabki 3 oyida to'la qiymatli oziqlantirish, uning darajasini oshirish sut miqdorini oshirish bilan birga, ular organizmini to'yimli moddalar bilan ta'minlab, sutining sifat ko'rsatkichlarini ham yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqotlarimizda shuni ko'rib bormaqdamizki sigirlarni to'liq balanslashgan ratsion asosida oziqlantirilib borilsa, bizning sharoitimizda ozuqani yaxshi darajada sut mahsuloti bilan qoplash xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatdi, bu esa ular bizning o'ziga xos keskin iqlimi sharoitida ham sut mahsuldorligin sezilarli darajada oshirish imkoni bor ekanligini ko'rsatmaqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J.N.Xujamov, Z.Sh.Mirsaidova, A.M.Davletova- "Qoramollarning mahsuldorligini oshirishda naslli buqalar tizimidan samarali foydalanish" SamDVMChBU. Samarqand-2023yil. Monografiya. 26-30-varaq.
2. A.S.Ibadullaeva, Aknazarov.D.K., Bazarbaev. R.J., Yusupov.O.Yu., Turdimuratova.G.N., QAXAI. Nukus-2021yil. "Sigirlarni ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkishlari", "Qishloq xo'jaligida yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlashdagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 260-263-varaq.
3. Гаврин Д., Кряжева В. К вопросу о полноценности кормления лактирующих коров. Ж. «Молочное и мясное скотоводство», №4, 2010, стр. 20-22.
4. Харитонов Е. К вопросу об оценке питательности основных коров. Ж. «Молочное и мясное скотоводство», №5, 2012, стр. 13-16.

5. Аширов М.Э. Сутдор қорамоллар селекцияси, Наврўз нашириёти., Т., 2017, 380 б
6. Карибаев К.К., Аширов М.И., Карибаева Д.К. Ўзбекистондаги асосий озукаларнинг тўйимлилиқ қиймати бўйича билдирги. Т., 2000, 13-18 б.
7. Рахимов, М. А., Турдалиев, А. Т., & Мадрахимов, Ш. Н. (2022). ПРОИЗВОДСТВО ПОЛНОЦЕННОГО МЯСА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОРОДНЫХ РЕСУРСОВ. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНОГО И НЕПРОДУКТИВНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА* (pp. 184-189).
8. Жавхаров, О. З., Мадрахимов, Ш. Н., & Собиров, И. А. (2024). СОСТОЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ КОНЕВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (2), 282-287.
9. Базарон, Б. З., Шкуратова, Г. М., & Дашинимаев, С. М. (2018). Биохимические показатели крови лошадей забайкальской породы. *Ветеринария*, (7), 53-56.
10. Мадрахимов, Ш. Н., & Худайберганаева, Х. (2024). Характеристики покрытия кормов живой массой быков породы монбельярд разных генотипов. In *Актуальные проблемы, перспективные планы и инновационные решения в селекции, семеноводстве и агротехнологиях сельскохозяйственных культур: материалы Международной научно-практической конференции, 26 сентября 2024 г* (p. 388).
11. Мадрахимов, Ш. Н., Мамадов, Ф. Қ., & Гулбутаев, Б. Х. (2024). Турли селекцияга мансуб голштин зотли сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. *Science and innovation*, 3(Special Issue 40), 255-257.
12. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-ғўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асослари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
13. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
14. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, (22), 1.
15. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

PARRANDA TUXUMLARIDA EMBRIONLARNI O'SISH VA RIVOJLANISHI

Nametov A.L., Keunimjaeva M., Taubaeva Sh., Aminov I.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Nukus filiali*

Kirish. Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaga ilg'or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko'lamini kengaytirish, raqobatbardosh parranda mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta'minlashdir.